E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Surxondaryo viloyati to'qimachilik terminlari semantikasi

Ibragimova Nodira

Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati to'qimachilik so'zlari semantikasi haqida ma'lumot berilgan.

Abstract: This article provides information about the semantics of textile words of the Surkhandarya region.

Аннотация: В данной статье представлена информация о семантике текстильных слов Сурхандарьинской области.

Kalit so'zlar: Gilam, oq enli gilam, olacha, sholcha, oygilam, arqoq.

Ключевые слова: Ковер, белый широкий ковер, олача, шолча, айгилам, аргок.

Key words: Carpet, white wide carpet, olacha, sholcha, aygilam, argoq.

Hunarmandchilik-milliy an`anaviy mayda tovar ishlab chiqarish bo'lib, oddiy mehnat qurollari yordamida, yakka tartibda va qo`l mehnatiga asoslangan sanoat turi, shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomidir.

O'zbekiston — hunarmandlar o'lkasi. Bu o'lkada hunarmandchilikning 100 dan ortiq turlari shakllangan. Ustozoda hunarmandlar tomonidan yaratilgan bebaho hunar namunalari hozirgacha har bir xonadon ko'rki sanaladi. O'z milliy qadriyatlarini qadrlovchi xalqimiz bu merosni avaylab-asrab kelmoqda, qo'li gul, tajribali hunarmandlar tomonidan yaratilgan maktablarda tayyorlangan shogirdlar bu merosni yanada boyitib davom ettirmoqdalar.

Hunarmandchilikning qaysi turining qaysi hududda ravnaq topishi avvalambor aholining o'troq, yarim o'troqligiga, hudud tabiatiga, xom ashyoning mavjudligiga ko'p jihatdan bogliq bo'lgan. Masalan, Sherobodda kulolchilik, Denovda temirchilik va zargarlik, Boysunda to'quvchilik, tikuvchilik, charmchilik hunarlari ancha ravnaq topgan. Vohada yashovchi o'troq aholi hunarmandchilikning temirchilik, duradgorlik, to'qimachilik, tikuvchilik, kulolchilik, tegirmonchilik, juvozkashlik, kashtachilik, do'ppidozlik, etikdozlik, zargarlik, charmchilik sohalari bilan shug'ullangan bo'lsa, yarim o'troq aholi asosan, gilam to'qish, o'tovlar uchun kerakli anjomlar tayyorlash, hamda xo'jalik uchun zarur buyumlar (qop, arqon, oyna xalta, tuz xalta, po'stin, tulup, mesh, qovga, egar-jabduq, poyafzal va hakoza) tayyorlashgan.[1]

Til muttasil rivojlanar ekan, unda yangidan yangi tushunchalar, so'zlar paydo bo'lishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Mazkur jarayonda til leksikasi sofligini ta'minlash va umumxalq tiliga yaqinlashtirish uchun uning xalq shevalaridagi so'zlar bilan boyitilishiga jiddiy ahamiyat qaratish zarur. Boshqacha aytganda, xalq shevalari adabiy til leksikasini boyituvchi va uning asosini tashkil etuvchi manba sifatida millat ongidagi juda ko'p nomlanmagan tushunchalarni atovchi birliklarga ega.Oq jundan to'qilib, usti kashtalangan bo'laklarning o'zaro almashinib kelishi natijasida hosil boladigan bezakdor oq enli (oqen, oqli) va sakkiz qirrali medalon shaklidagi "qalqon nusxa" naqshlar bilan bezatilgan oy gilam (xon gilam, qiz gilam)deb yuritiladigan gilamlar qo'ng'irot gilamchiligida alohida o'rin tutadi. Oq enli gilami bezak kompozitsiyasi o'zida o'zbek urug'lariga xos an'analarni aks ettirsa, oy gilam tipidagi gilamlar bezagida turkiy xalqlar — o'guz va dashtiqipchoq qabilalari gilamchilik san'atining o'zaro uyg'unligi va ta'sirini kuzatish mumkin.To'qish texnikasidan kelib chiqqan holda, bo'rtma kashtaga o'xshash bezakdan foydalaniladigan besh kashtadan farqli oq enli gilamlarida qo'l

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Hunarmandchilik

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

kashtasi qo'llanadi. To'qima naqsh usulidagi bu farq naqshlar talqinida ham yaqqol korinadi. To'qilgan (besh kashta) variantlarida u aniq geometrik shaklda boladi va unda o'tkir burchakli unsurlar asosiy o'rin tutadi. Kashta tikish usulida esa (oq enli) ravon, bezak burchaklari silliqlashtiriladi. Oq enli bezak tizimida zoomorf va solyar (osmon jismlari) motivlari ustunlik qiladi. Bu, ayniqsa, Surxondaryoning Boysun tumani qo'ng'irot gilamchilari yaratgan oq enli gilamlaridagi o'simliksimon bezaklarda yaqqol bilinadi. Aralash texnika (to'qimachilik va kashtado'zlik) da tayyorlangan qo'ng'irot gilamlarining kam o'rganilgan turlaridan biri oy gilamning ko'pgina nusxalari Afg'oniston shimoli va Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida mavjudligi aniqlangan.[2] Surxondaryo viloyati, xususan, Boysun tumanida esa hozircha ushbu turdagi gilamlar bor ekanligi qayd etilmagan. Biroq ayrim keksa qo'ng'irot ayollarining ta'kidlashicha, ilgari ularda ham xuddi shunday gilam turi to'qilgan.

Yaratilish joyi, naqshlari tuzilishi, tayyorlash texnologiyasi va vazifasiga ko'ra medalon ko'rinishidagi kompozisiyali gilamlar turlicha atalgan. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani qo'ng'irot gilamchilari ushbu gilamni oy gilam deyishadi. Oy gilam tipidagi gilamlar haqidagi ma'lumotlarda "qiz gilam" atamasi ham qo'llangan. Bu mazkur buyumning kelin sarposi sifatida ishlatilishi va an'anaviy marosimlarda ishlatilishi bilan bogliq bo'lishi mumkin.Oy gilam yuzasi asosiy bezak kompozisiyasini turkiy xalqlar gilamchiligidagi universal motiv — sakkiz qirrali nishon shaklidagi diagonal oynusxa bezagi tashkil etadi. Ushbu bezakning paydo bo'lishi turkman gilamchiligida o'z aksini topgan o'guz qabilasi gilamchiligi an'analari bilan aloqador. Turkmanlarning ushbu motivi gyol (kol yoki gul), turunj (topbarggul yoki sitrus meva) yoki qalqon nusxa deb yuritiladi. Oy gilamlarda Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar gilamchiligining ikki asosiy oqimi yoki yonalishiga xos an'analarning o'zaro ta'siri va uyg'unlashgan ramzlari o'z aksini topgan.[3]

Gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqqan usuli tarkibidagi xom- ashyo turi, tuk qatlamining tuzilishi, o'rilishi, zichligi va ranglarning mustahkamligi bilan farq qiladi. Ishlab chiqarish uslubi bo'yicha gilamlar quyidagi turlarga bo'linadi. Tukli kesilgan va kesilmagan tuklar, halqali, tuksiz ikki tomonli gilamli to'qimalar, palos va bir tomonli gilamlar. Gilamlar qo'lda va mexanik uslubda ishlab chiqariladi.

Tukining balandligiga qarab dastgohda ishlangan gilam va gilam mahsulotlari kalta tukli va uzun tuklilarga bo'linadi. Tuksiz gilamlarni ishlab chiqarish osonroq, chunki tuksiz gilamlarni faqat ikki sistema, tanda va arqoq iplari orqali shakllantirish mumkin. Tukli gilamlar uch sistema iplar orqali yani, tukni ushlab turadigan (tanda va arqoq), tukni tashkil etuvchi (tanda yoki arqoq) va asos iplar (tanda) orqali shakllantiriladi.

Qo'lda ishlab chiqariladigan tukli toqimalar yoki gilamlar tukining shakli va uzunligiga qarab bir necha turda boladi. Gilamlarda tuklar qirqilgan, qirqilmagan va aralash holatda boladi. Tuklarning uzunligiga qarab kalta, o'rta va uzun tukli gilamlarga ajratiladi. Qo'lda to'qiladigan tuksiz gilamlar naqsh (rasm)larining ko'rinish holatiga qarab bir tomonli va ikki tomonli qilib tayyorlanadi. Shu bois, hunarmand qizlari jun mahsulotlarini qayta ishlab, urchuqda ip tayyorlashadi. Jun ipdan chakvon poytoba, oyil, jun paypoq, nimcha tayyorlashadi. Gilamlarni ham ajoyib usulda jumladan, qattiq qalam nusxalari chinaqoy, taraqi gulchinor, atlas turlarida to'qishadi. Qoqma gilam 16-18 quloch qilib tayyorlanadi. Ushbu gilamning ham turlari ko'p. Qoqma gilamlarning g'ojari, katik, chumchuq ko'z, olacha va boshqa turlari mavjud. Jun ham bizning milliy boyligimiz.

[2] O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
[3] Togaev Ganisher Xasanovich"Surxon vohasi etnik tarixidan",-2019

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Surxon vohasida ancha rivojlangan hunurmandchilk tarmoqlaridan biri toqimachilik sanalgan. Toqimachilik hunari vohaning barcha hududlarida o'ziga xos tarzda mavjud bo'lgan bo'lsada, Boysun va Denovda juda yaxshi taraqqiy etgan. To'qimachilik hunari asosida uy sharoitida sidirg'a va guldor ip, ipak va yarim ipak gazlamalar to'qilgan. Ayniqsa, qalami, olacha, so'si, chit, shoyi, atlas, bo'z, beqasam kabi matolar ko'plab to'qilgan. Bundan tashqari, jundan shol, bosma, qoqma kabi matolar ko'plab to'qilgan va bu matolardan asosan, ustki kiyimlar tayyorlangan. To'qimachilik tarkibida ip yigirish, mato to'qish va bo'yash kabi bir necha tarmoqlar bo'lgan. Ip yigiruvchilarning asosiy xom-ashyosi paxta, jun va ipak bo'lgan. Vohada ishlab chiqarilgan matolar o'zining rangdorligi va go'zalligi bilan farqlanib turgan. Matolarni ishlab chiqarish aholining an'anaviy xo'jaligi mashg'uloti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Chunki voha aholisi paxta etishtirish va undan mato tayyorlash bilan qadimdan shug'ullanib kelgan. Paxtadan uy sharoitida mato toqish uchun paxta chigiti xalaji yordamida ajratib olingan. Xalaji-paxtani chigitidan ajratib beradigan asbob. Yigirilgan iplardan "do'kon" deb nomlanuvchi to'quv moslamasida turli matolar tayyorlangan. To'qimachilik dastgoxida to'qiladigan matolarning uzun tortilgan iplari "tanda" yoki "o'rish" deb, ko'ndalang tortilgan ipi esa "arqoq" deb atalgan. Mokiga tanda otkazilib, har safar do'kon dastasi bilan jipslangan. Matolar qarichlab o'lchangan. Matolarning eni qisqa ya'ni 35-40 sm bo'lgan. Do'konda ikki marta olingan mato bir kiyimlik bo'lgan. Vohaning Boysun tumani olacha, janda, shoyi to'qishning markazlaridan biri sanalgan. Olacha yo'l-yo'l mato bo'lib, yo'llari qizil, qirmizi, zangori va to'q yashil ranglar bilan tushirilgan. Janda matosi Boysunning Sariosiyo qishlog'ida to'qilgan. Janda to'qish uchun ishlatiladigan oq paxta Jarqo'rg'ondan, bo'yoq esa Denovdan keltirilgan janda matosining eni 50 sm bo'lib, jandadan bitta tonni tayyolash uchun 7-8 metr mato ketgan. So'si yo'l-yo'l gulli yupqa mato sanaladi. So'si to'qishda tanda iplar bilan arqoq orasi ochiqroq qilib, olachadan yubqa va yirik qilib to'qiladi. Qishloq aholisi kiyim-kechak tikishda ko'p ishlatiladigan matolardan biri bo'z bo'lgan. Bo'z paxta ipidan dag'alroq qilib to'qilgan. Ipak olish uchun pilla qayta ishlanib, ipak iplar charxlarda to'qilgan. Bundan tashqari, ipak ip va matodan sallalar chetiga jiyak, chiroz to'qish, sochga taqish uchun sochpopuklar ham tayyorlangan. Ayniqsa, Boysun shoyisining shuhrati ancha yuqori bo'lgan. Mahalliy hunarmandlar tayyorlagan matolar uy sharoitida bo'yalgan. Bo'yoq tayyorlash usuli uzoq yillik tajriba va mashaqatli mehnat mahsuli bolib, ancha sir tutilgan. Mahalliy bo'yoqchilar rang tayyorlash uchun vohada o'sadigan mahalliy o'simliklar isparak, mardona, jinjak, anor va yong'oq po'stlaridan foydalanib, turli ranglar hosil qilishgan. Matolarni bo'yash jarayoni to'qishdan avval bajarilgan. Bundan tashqari matolarga bosma naqshlar ham solingan. Matolarga bosma naqshlar solishda bir necha qoliplardan foydalanilgan. Qoliplar yuziga turli naqshlar o'yib chiqilgan va naqshning asosiy va tashqi chizigi bo'lgan. Naqsh solish uchun qoliplar terak, tol, zarang, o'rik, bodom va yong'oq daraxtlarining yog'ochidan qilingan. Quritilgan o'simlik ildizi poyasi va anor po'stlog'ining qaynatmasidan tayyorlanib, temir zangi qo'shilgan suvga mevali daraxtning quyuq elimi aralashtirilib, qora rangli qorishma hosil qilingan. Keyin shu qora rangga botirib olingan qoliplar matoga bosilgan. Vohada matoni bo'yash bilan shug'ullanuvchilar "nilchi", matoga gul bosuvchilar esa "chitgar" deb atalgan. Vohada har bir ustaning o'ziga xos ish uslubi matoga gul bosish jarayonida yaqqol ko'ringan. Gul qoliplar chidamli va otadan-bolaga meros bo'lib qolavergan. Vohada ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi matolarni jundan to'qigan. Jun avvalo yuvib, maxsus jun taroqlarda titilgan. So'ngra maxsus savacho'p yordamida savalgan va yigirilib ip holatiga keltirilgan. Jun iplar asosan, tuzli suvda qaynatib olingan. SHuning uchun ham jun iplar pishiq va chidamli bo'lgan. Vohaning dasht, tog'li va tog' oldi mintaqalarida yashovchi chorvador aholi nafaqat jundan kiyim-kechak, qolaversa kundalik xo'jalik ashyolari gilam, xalta, kigiz, xurjun, xaltalar ham tayyorlashgan. Qo'y juni, tuya juni va echki juni (tivit) mato tayyorlashda asosiy xom-ashyo bo'lgan. echki junidan tivit salla, paytava va ro'mol tayyorlangan. Tuya junidan ko'proq chakmon tikilgan. Bundan tashqari, tuya junidan joynomoz, dasturxon hatto ko'rpa ham tayyorlangan. Qo'y junidan tayyorlangan ip yerga yotqizib to'qiladigan o'rmaklarda "shol" mato tayyorlangan. Xullas, hunarmandchilik xo'jaligining

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

tarkibiy qismi sanalgan to'qimachilik voha aholisi turmush tarzida muhim o'rin tutib, aholining kiyinish madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Vohada bo'yra to'qish hunari bilan shug'ullanuvchilar bo'yrachilar deb atalgan. Bo'yra qamish novdalaridan to'qilgan. Bo'yra kigiz yoki gilam tagidan yerga to'shalgan. Shuningdek, uylarning ustini yopishda hamda o'tovlarning atrofini aylantirishda "chiy" sifatida bo'yradan foydalanilgan. Sheroboddda hatto bo'yrachilar qishlog'i ham bo'lgan. Umuman, vohada uy-rozgor buyumlari yasash an'anasi qadimdan sayqal topib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan noyob hunar turlaridan biri sanaladi.

Hunarmandchilik leksikasiga oid bir qancha terminlar adabiyotlarimizdan o'rin olgani va umumiste'moldagi so'zga aylanganini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, qaysidir ishni oxiriga yetkazmasa, "O'rmak yugurib qoldingmi?" jumlasi ishlatiladi. Gilam to'qishda dastlab o'rmakni qurish uchun uch burchakdagi qoziqlarga iplarni aylantirib chiqiladi, bu murakkab jarayondir.

Hunarmandchilikning har qaysi tarmog'i o'ziga xos xom-ashyolarga, o'ziga xos ishlab chiqarish qurollariga, o'ziga xos texnologiyaga, shular bilan yuzaga keltirilgan o'ziga xos mahsulotlarga ega. Hunarmandlar ularning har birini maxsus termin bilan ataydi. Shunday qilib, qadimgi hunarmandchilik kasblari bilan birga o'sha kasb-hunarlarning terminlarini o'z ichiga olgan leksika ham vujudga keladi va u til taraqqiyoti tarixida maxsus o'rin tutadi.

Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulot keng ommaning iste'moliga o'tgach, ularning nomlarini anglatuvchi va ilgari sof hunarmandchilikka oid bo'lgan so'zlar ham, jamiyatning turlicha tabaqalari nutqiga kirib ketib, bora-bora umumiste'moldagi so'zlarga aylanib ketadi. Surxondaryo vohasidagi hunarmandchilik leksikasiga oid bo'lgan so'zlarning anchagina qismi butun Surxondaryo vohasidagi, turli tabaqaga mansub bo'lgan aholilarning kundalik nutq jarayonida uchraydi. Demak, ular hunarmandchilik leksikasidagi so'zlargina emas, balki umumiste'moldagi so'zlar hamdir. Hunarmandchilik so'zlari umumiste'moldagi so'zlarga aylangach, so'zlashuv tilida va adabiy tilda turlicha majoziy ma'nolarda ham ishlatiladi. Buning misollari ayniqsa, maqol, aforizm va turg'un birikmalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo hunarmandchilik so'zlarining bir qismi umumiste'moldagi so'zga aylanmay, tor hunarmandchilik terminligicha qoladi. Ba'zi terminlar Surxondaryoning hamma joyida emas, balki ayrim joylarida ishlatiladigan hunarmandchilik so'zlaridir.

Surxondaryo viloyati hunarmandchilikning qo'l mehnati davri leksikasidagi so'z-terminlar (ish qurollari, asbob-anjomlar, joy, xomashyo, mahsulot, mehnat nomlari) asosan XIX asrdagi terminlarning qariyb o'zidir. Masalan, o'rmak, namat, takiyamat, taqir gilam, odarg'i, qilich, qanor, qoqma va hokazo so'zlar XIX asrda va undan oldin ham hunarmandchilik leksikasida mavjud edi. Tilimizning taraqqiyoti natijasida bularning ko'pi umumiste'moliy so'zlarga aylangan. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, hunarmandlarning termin tuzish tajribalarida birinchi navbatda asosiy lug'at fondiga oid so'zlardan foydalaniladi. Bu hol asosiy lug'at fondining mustahkam va yashovchanligini yana bir karra isbotlaydi.[4] Masalan, qilich so'zi asosiy lug'at fondiga oid so'zdir. Gilamchilikda bu so'zdan quyidagicha foydalanib, shu kasb uchun xoslab olinganini ko'ramiz: Qilich- o'rmak to'qishda iplarni jipslashtirish uchun ishlatiladigan, qilichga o'xshatib yasaladigan asbob.

Mehnat jarayonida yuzaga kelgan va ijtimoy hodisalardan sanalgan til kishilik turmushini har taraflama va keng suratda o'zida aks ettiradi. Shu sababli til tekshiruvchilardan til komponentlarini (gramatik qurilishi va leksikasini)shu tilda so'zlashuvchi xalqning ijtimoiy hayoti, moddiy madaniyati va tarixi bilan bog'lab tekshirish talab etiladi.

[4] S. Ibrohimov " Fargona shevalari kasb-hunar leksikasi" Toshkent, 1959-yil. B-147

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Hunarmandchilik

2.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

3.Togaev Ganisher Xasanovich"Surxon vohasi etnik tarixidan", 5A220201 — Ozbekiston tarixi ,Magistr darajasini olish uchun taqdim etilgan

D I S S E R T A TS I YA

4. S. Ibrohimov “ Fargona shevalari kasb-hunar leksikasi” Toshkent, 1959-yil. B-147



WORDLY
KNOWLEDGE